

Mavzu: **Tovush va harflar. Bo'g'in.**

Tovush va harf (fonetik) tahlili

Aa Qarğa oğzini katta ochib,
mazali buterbrodni tushirib
yubordi.



XVIII asr boshlarida Buyuk Britaniyada **buterbrod** paydo bo'lgan. Ba'zi badavlat odamlar go'sht bo'laklarini kesib, qo'llarini ifloslantirmasdan ovqatlanishlari uchun ikki bo'lak non orasiga qo'yishgan. Shunday qilib, buterbrodlar bolalar va kattalar orasida mashhur bo'lib ketgan.



1-mashq. Ko'chiring. Topishmoqlarning javobini toping va yozing.

Sutdir uning onasi,
Qatiq¹, qaymoq og'asi.
Ular ahil do'st o'rtoq,
Uning nomidir... .



Taomga maza qo'shar,
Qozon, tandirda pishar.
Yesam¹ kirar tishimga,
Yemasam-chi, tushimga.



- Ushbu mahsulotlarning foydasi haqida bilasizmi?



2-mashq. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib, o'qing.

k...mpot, l...g'mon, q...duq, t...vuq, k...mpyuter, kar...m, ach...iq,
h...vli, chumch...q, t...voq, k...nser, t...mom, bizn...s, voq...a,
muh...m

- Qaysi tovush talaffuzida xatoga yo'l qo'yish mumkinligini ayting.



3-mashq. Matnni o'qing. Ikki bo'g'inli so'zlarni bo'g'inga ko'chirish qoidasiga ko'ra ajratib yozing.

Katta Tag'ob qishlog'ida Mahmudjon ismli uyatchan bola yashardi.⁵ Bir kuni u ammasinikiga mehmonga bordi. Ammasi uni uzum, anor, yangi yopilgan non bilan mehmon qildi. Mahmudjon uyalib dasturxonga qo'l uzatmadi. Ichida esa "Qani endi o'sha anorlardan bittasini yeb olsam", deb o'yladi.

Mahmudjon o'rniga yotdi. Qorni ochligi uchun hech uyquasi kelmadi. Yangi yopilgan nonning hidi dimog'iga urilib, ishtahasini qitiqlar edi.

- Qaysi ikki bo'g'inli so'zlarni bo'g'inga ajratib bo'ladi, ammo satrdan satrga ko'chirib bo'lmaydi?
- So'zlardagi ochiq bo'g'inga bir chiziq, yopiq bo'g'inga ikki chiziq chizing.



Ochiq bo'g'in – unli tovush bilan tugagan bo'g'in.

Yopiq bo'g'in – undosh tovush bilan tugagan bo'g'in.



4-mashq. "Zanjir" o'yini. Birinchi o'quvchi bitta so'z aytadi, ikkinchi o'quvchi o'sha so'zning oxirgi harfi bilan boshlanadigan so'z topib, o'yinni davom ettiradi.

Namuna: bola – anor – ...



5-mashq. Matnni bo'g'inga ajratib ko'chiring. Faqat yopiq bo'g'indan iborat so'zlarni belgilang.

Yomg'irning turlari ko'p. Yozda quyosh¹ charaqlab turgan paytda yog'adigan yomg'ir tomchilari nur ostida jilolanadi. Bunday go'zal hodisa quyoshli yomg'ir deb ataladi. Issiqdan chanqagan tabiat yomg'irni intiqlik bilan kutadi. Yomg'ir o'simliklarni sug'oradi, havoni musaffo¹ qiladi va atrofga go'zallik¹ baxsh etadi.

